

OLTIN BESHIK RIVOYATI QANCHALIK DARAJADA HAQIQAT ?

Sharipova Durdona

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti 2 bosqich talabasi

Annatatsiya : ushbu maqolamda O'rta Osiyo xonliklarida hukm surgan Qo'qon xonligining tashkil topish asoslari va Unga asos solgan sulolaning (ya'ni minglar sulolasi vakillari) ajoddlari qadimgi Amir Temur avlodi bo'l mish Boburga o'z tarixini bog'lab bergen „Oltin beshik“ rivoyatini haqida so'z yuritiladi. Va bu rivoyat haqiqatmi? Yoki o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun to'qilgan yolg'onmi? bu fikrlarga o'sha davr va hozirgi davr tarixchi olimlarining fikrlari qanday, shu kabi masalalarga to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, ming, qirq, qipchoq, beshik, Sulton Edik, Xudoyor, Boburnoma, Jamoshbiy, Shohmastbiy, Jamoshbiydan Shohruhbiy va Hojibiy, Tangriyor, Muhammad Muqimxon, Ashurqulibiy

Biz bilgan uch xonllikdan eng yoshi, o'zining go'zal tabiatini va xushmanza joylari , nafaqat manaviy - ijtimoiy sohalarida balki xalqining mard jangovar ozodlik xarakatlari bilan tarixdan o'rinn egallab kelgan Qo'qon xonligi hisoblanadi.Ushbu davlat XVIII asr boshlarida tashkil topgan bo'lib, bu davrgacha u Buxoro xonligi tarkibida bo'lgan, lekin Buxordagi siyosiy tushkunlik holatida va iqtisodiy vaziyatning yomonligi tufayli xonlik tarkibidagi hududlar ajralib mustaqil hokimliklar tashkil qilshi uchun vaziyat paydo bo'lib qoladi . Bu vaziyatdan foydalanib qolganlardan biri Farg'ona ya'ni Qo'qon xonligi hisoblanadi.Vodiyda katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan xojalar jamoasi hokimiyat uchun harakat qilayotgan bir paytda o'zbeklarning ming qabilasi hokimiyatni egallahsga eng qulay vaziyat etilganligini tushunib yetgach, 1709-yili o'zlarini Buxorodan mustaqil, deb e'lon qildilar. Targ'ova, Pillaxon, To'qaytepa, Pamok,

Tepaqo'rg'on va Qaynar mavzelari yangi mustaqil davlatning dastlabki hududlari hisoblangan. Minglar sulolasi Farg'onada mustaqil davlatga asos solar ekan, qabila oqsoqollaridan biri Shohruhbiyni xon deb e'lon qildilar. Shu tariqa vodiyda 1876-yilgacha hukmronlik qilgan yangi o'zbek davlati vujudga keldi³³.

Shohruhbiy va uning avlodlari shajerasi tarixini Boburga borib taqaydilar. Olimlar bu masalaga turlicha baho beradilar. Xususan ,minglar o'z hukmronligini huquqiy jihatdan qonuniylashtirish va mustahkamlash maqsadida keltirib chiqarganlar deydilar va bu fikrlarini Z. M. Buburning „Boburnoma“sida hech qanday ma'lumot keltirilmagani bilan isbotlashib o'tsalar , ikkinchi fikrdagilar haqiqatdan ham minglar tarixini Boburga bog'lab beradilar. Asarlarida turlicha tarzda sulolaning Boburga bog'langangan variantlarini ko'rishimiz mumkin.

Bu haqiqatni o'rganishda men bu haqda ilk marota oqigan 8 – sinf darsligiga yuzlandim unda :Bobur Shayboniyxonadan yengilib Movarounnahrdan Farg'ona vodiyisi orqali chiqib ketadi. Yo'lda Bobur Mirzoning ayollaridan biri o'g'il farzand

1. ³³ I.Kuzukulov Qo'qon xonligi tarixi *o'quv uslubib qo'llanma* Namangan 2014.b.135

ko'radi.Biroq uni olib ketolmaydilar, aksincha, qimmatbaho zeb – ziynat buyumlari bilan bezatilgan beshikka bog'laydilar va hizmatkorlaridan birini Bola bilan qoldiradilar. Bola qoldirilgan joyda o'zbeklarning qirq, qipchoq, qirg'iz va ming urug'i ovullari bor edi. Ular bolani topip oladilar va unga Oltinbeshik deb ism qo'yadilar. Oltinbeshik ming urug'i orasida tarbiyalanadi.

Voyaga yetgach ming urug'idan bo'lган qizga uylanadi. Ulardan o'g'il farzand tug'iladi.Unga Tangriyor deb ism qo'yadilar.Rivoyatga ko'ra u Farg'ona humdori bo'lib, davlatni biy unvonida boshqaradi.²(8sinf ozbek tarix Tosh 2019)

Bu kitobda boshqa kitoblardagidan shaxslar ismlari farq qilgan holda ketirilgan . Keyinchalik Qo'qon xoni Olimxonning „Sohibqiron” unvonini olishi bilan haqiqatdan ham bu sulola tarixi Amir Temur avlodlariga taqaladi deb keltirilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur Shayboniyxonidan yengilib, Hindiston tomon ketayotib, safar asnosida xotini tug'adi.(manbalarda Farg'ona hududi deb ko'rsatiladi). Safarni go'dak bilan davom ettira olmasligi uchun Bobur bu yerga go'dakni javohirlar bilan beshigi bilan bir yigitni qorovul qilib

tashlab ketadi. Bu atrofda yashagan uch o'zbek qabilasi bolani o'zlariga oladilar. Buni bir ayolga topshiradilar va unga Oltin beshik ismini qo'yadilar. Voyaga yetgach, uni bir qizga uylantiradilar bu nikohdan Sulton Edik (yoki boshqa manbalarda Ilik) ismli farzand tug'iladi. Undan Xudoyer ismli farzand qolgan, undan esa Abulqosim, undan esa Shohmastbiy, ikkinchi ismi esa Jamoshbiy, Shohmastbiy, Jamoshbiydan Shohruhbiy va undan Hojibiy, undan esa Ashurbiy tug'ilib, Ashurbiydan esa bizga mashhur Shohruhbiy tavallud topgandir. Oltin Beshik bilan Qo'qon xonligiga asos solgan Shohruhbiy orasida 10 ta avlod almashgan³⁴. Bu asarda beshidagi bolaga Oltinbeshik ismi qoyilgani bir xil ketgan bo'lsa. Uning tarbiyasiga alohida bir ayol tayinlanib, uning farzandiga Sulton Edik ismi qo'yilishi, undan so'ng Shohruhbiygacha o'n avlod almashgani, dastlab tashlab ketilganida hududda uch qabila bo'lgani haqida bilib olishimiz mumkin. Aslida bu afsona bilan Zahiriddin Muhammad Boburning hech qanday aloqasi yo'q. Qo'qon xonligining tashkil topishida Ming urug'inining muhim o'rinn tutganligi, uning dastlabki vakillari xususida ilmiy tadqiqotlarda ham, qo'lyozma manbalarda ham turlicha qarashlar mavjud.

Qo'qon xonligi tarixi haqidagi yozilgan –Oltin beshik|| haqidagi boshqa afsonalardan birida minglarning hokimiyat tepasiga kelishini 1702-1707-yillar mustaqil bo'lган Balxning afsonaviy hukmdori Muhammad Muqimxon nomi bilan ham bog'lanadi. Unga ko'ra, Muhammad Muqimxon Boburning to'rtinchi avlodi bo'lib, bir vaqtlar Qobulni boshqargan.

Keyinchalik Xurosonga, u yerdan Buxoroga, Vali Muhammadxon huzuriga keladi. Valimuhammadxon unga ajdodlari hududi bo'lган Farg'onani beradi. Lekin Imomqulixon uni mag'lubiyatga uchratadi. Muhammad Muqimxon esa Targavaga yashirinadi. U yerda Niso begimga uylanadi. Bu nikohdan bir farzand tug'ilgan, lekin tez orada Niso begim vafot etadi. Muqimxon Andijonni bosib olishni orzu qilgan, lekin

³⁴ Mulla Olim Mahdum Hoji „Tarixi Turkiston

o'limi orzusining amalga oshishiga xalaqit bergen. Undan qolgan farzandni esa shu yerdagi to'rtta qabila boqib katta qilad³⁵, shu asnoda tarixdagi tadqiqotlarning natijasi bilan Oltin Beshikning turli variantlari yuzaga kelaverdi.

Oltin beshik“ — Qo'qon xonligini idora etgan ming sulolasining kelib chiqishi haqidagi rivoyat. Unga ko'ra, 1512-yil Bobur Samarcanddan Farg'ona orqali Hindistonga qochadi, yo'lida Boburning xotinlaridan biri o'g'il tug'adi. Qochoqlar go'dakni qarovsiz tashlab ketishga majbur bo'lishgan. Uni qimmatbaho ziynat buyumlari qo'yilgan beshikka yotqizib, sodiq xizmatkorlardan biriga qoldiradilar. U Boburga go'dakning taqdiri haqida xabar berishi kerak bo'lgan. Bu vaqtida mazkur joyda o'zbeklarning qirq, qipchoq, qirg'iz va ming urug'larining ovullari bor edi. Ushbu urug'i vakillari bolani topib olib, unga „Oltin Beshik“ deb nom qo'yanlar. Bola ming urug'i ovuliga joylashtirilgan. Oltin Beshik voyaga yetganda xalq unga har bir urug'dan (qirq, qipchoq, qirg'iz va ming) bittadan qizga uylanishga imkon beradi. Ming urug'idan bo'lgan katta xotin unga yolg'iz o'g'il tug'ib beradi. Unga Tangriyor deb nom qo'yadilar, boshqacha qilib Xudoyer yoki Eloq Sulton deb atay boshlaydilar. Bobur asarlarida Oltin Beshik haqida hech narsa demagan, uning zamondoshlari ham uni tilga olmaydilar. Shuning uchun bu rivoyatni Qo'qon xonlari o'z shajaralarini Bobur bilan bog'lash va o'z hokimiyatlarini barqaror etish maqsadida to'qishgan deb hisoblash mumkin³⁶.

Rivoyatlarga ko'ra, Oltin Beshik 1545-yil vafot etgan. Uning o'g'li Tangriyor keyinchalik Farg'onaning hukmdori bo'ladi, lekin xon emas, balki biy deb ataladi. Bu nom uning avlodlaridan to Olimxongacha berilgan.

Bu savolning yechimiga turli olimlar turlicha yondashuvdadir. Men ushbu olimlarning tadqiqotlari asosida kelgan xulosamda aynan so'zma -so'z raviahda bo'lmasad minglar urug'i qavmida hukmdorlar sulolasiga aloqador deb o'ylayman . Chunki ushbu rivoyatlar bejiz hanuzgacha olimlarni ikkilantirib kelgan emas . Ularning tomirada ma'lum darajada hukmdorlar qoni oqayotgan bo'lsa ajab emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Kuzukulov Qo'qon xonligi tarixi *o'quv uslubib qo'llanma* Namangan 2014.
2. Mulla Olim Mahdum Hoji „Tarixi Turkiston”
3. R.X.Akbarov Qo'qon xonligi tarixi. Oquv uslubiy qo'llanma Farg'ona 2015
4. Bobobekov H.N., Qo'qon tarixi, T.1976

³⁵ R.X.Akbarov Qo'qon xonligi tarixi. Oquv uslubiy qo'llanma Farg'ona 2015

³⁶ Bobobekov H.N., Qo'qon tarixi, T., 1976